XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-47-57-12-180-K/21 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahridagi ko‘cha nomlarini qayta nomlash to‘g‘risida

Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2021 yil 1 martdagi 4-1178-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Urganch shahar komissiyasining “Kamolot” mahallasi fuqarolar yig‘ini tarkibidagi Majnuntol ko‘chasi nomini qayta nomlash bo‘yicha takliflari viloyat komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va 2020 yil 24 iyuldagi Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi xuzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi xuzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur yig‘ilish bayoni va bu yuzadan ekspert xulosasiga muvofiq:

- “Kamolot” mahallasiga qarashli “Majnuntol” ko‘chasi nomini “Olmaxon

Hayitova” ko‘chasi deb nomlansin.

3. “Kamolot” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi :

- bir xafta muddatda o‘zlarining hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqqan xolda, tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini;
- 10 kun muddatda ushbu qarordan nusxalarni shahar IIO FMB, shahar statistika bo‘limiga va boshqa mutasaddilarga yetkazilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari N.Matyakubov hamda Xalq deputatlari shahar Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish hamda ekologiya bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Xolboyev**